



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV
akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

G‘OYAVIY-BADIIY KONSEPSIYA VA POETIK OBRAZLAR HISSIY TONALLIGI

Sevinchoy Yoqubova,

ToshDO‘TAU dotsenti v.b., PhD

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/NFPD7910

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek jadid shoirlari ijodiy niyati, estetik ideali va ular yaratgan poetik obrazlar har birida mualliflarning kuchli hissiy munosabati ifodalanishi – mushtaraklik va o‘ziga xosliklar masalasi o‘rganilgan. Shuningdek, har bir badiiy asar yashovchanligi ijodkor nuqtai nazari – muakmmal badiiy konsepsiyasi g‘oyaviy mazmuni kitobxonga yetkazish usullari hamda obrazning hissiy tonalligi masalalari tarixiy-qiyosiy va analitik yo‘sinlarda tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *g‘oyaviy-badiiy konsepsiya, poetik obraz, obrazlar tizimi, hissiy tonallik, badiiy niyat, estetik ideal, badiiy ifoda, mushtaraklik, o‘ziga xoslik, poetik mahorat.*

Abstract. This article analyzes the creative intent and aesthetic ideal of Uzbek Jadid poets, the expression of the authors’ deep emotional state in each of their poetic images—the problem of commonality and specificity. Using historical, comparative, and analytical perspectives, it examines the vitality of each work of art, the creative point of view—the holistic artistic concept, the methods of conveying the ideological content to the reader, and the emotional tone of the image.

Keywords: *ideological and artistic concept, poetic image, figurative system, emotional tonality, artistic intent, aesthetic ideal, artistic expression, community, individuality, poetic skill.*

Badiiyatning umumiy kategoriyasi sanaluvchi badiiy obraz – bu narsa va hodisaning san’atkor inson nigohi bilan ko‘rilgan va uning estetik ideali asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Badiiy obraz adabiyot va san’atning nafaqat fikrlash shakli, balki olam va odamni ifoda etish vositasi hamdir. Badiiy obraz tashqi borliqdan shartlilik asosida ajralgan yangi mavjudlik – individuallashtirilgan umumlashma bo‘lib, ijodkor inson his-tuyg‘ulari orqali uning ongida akslanadi. Shoir (yozuvchi, dramaturg)ning tafakkur qudrati, ma’naviy-ruhiy ehtiyoji va salohiyatiga mos tarzda ijodiy sayqallanadi. Konkret his etiladigan tarzda ifodaga ko‘chadi. Demak, badiiy obrazda obektivlik (makon, zamon) va subektivlik (tushuncha, tasavvur, faraz, kechinma) o‘zaro jiplashadi.

Shu nuqtayi nazardan o‘zbek jadid adabiyoti obrazlar tizimi kuzatilsa, ular uchun Turkiston o‘lkasi tarixiy taraqqiyoti, yurt ertasi, millat qismatini badiiy tadqiq etish muhim ekanligi oydinlashadi. Binobarin, shuning uchun, ayni masalalar jadid shoir-u adiblari, dramaturglari fikr-o‘ylarini band etgan yetakchi muammolar darajasiga ko‘tarilgan. Jadid ijodkorlari ongli tarzda (ratsional) badiiy idrok etgan muammolar o‘ziga xos obrazlar tizimini yuzaga keltirdi. Ular o‘zlari anglagan haqiqatlarni tugal bir qarash, tizimli xulosalar (konsepsiya) shaklida ifodalashdi.

Shubhasiz, jadid adabiyoti, ayniqsa she‘riyatida narsa, hodisaga kuchli hissiy munosabat o‘z aksini topdi. Chunki, badiiy asar ijodkor inson anglagan tugal qarash, muayyan tizim holiday xulosa (konsepsiya)ni shakllantirish va mazmunini kitobxon (tinglovchi)ga yetkazishda shoirning ijodiy niyati, hissiy kayfiyat-hollari (optimistik, pessimistik, xolis va betaraf, kinoyaviy, nafratomuz, achinish kabi munosabati), har bir konkret obrazning hissiy tonalligi¹ muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid shoirlari yashab ijod qilgan muhit ularning ijtimoiy-estetik kayfiyatiga kuchli ta’sir qildi. Badiiy ijodlari va obrazlar tizimida lirik tuyg‘ulardan ko‘ra ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy-tashviqiy ohanglar (ba’zan birqadar tushkun va umidsiz (pessimistik) kayfiyat ham S.Y.) kuchli namoyon bo‘ldi. Bosqinchilar oyog‘i ostida toptalgan, qadriyatlarini poymol etilgan erksiz yurt qismatiga qayg‘urish (fuqarolik ruhi) satirik pafos va isyonkor ruhga keng o‘rin ajratishni talab etdi. Bemalol

¹ Луначарский А.В. О поэзии как искусстве тональном // Луначарский А. В. Собр. соч. Т. 7. – М., 1967, – С. 426-431.

aytish mumkinki, o‘zbek jadid shoirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari, shaxsiyatlari va badiiy ijodlari yagona adabiy-estetik aktga evrildi. Aynan shu jihat o‘zbek jadid yoxud uning aks sadosi bo‘lgan 80-yillar she‘riyatining (R.Parfi, Sh.Rahmon kabi ijodkorlar nazarda tutilmoqda. S.Y.) hissiy tonalligini belgilashda muhim ahamiyatga molikdir. Binobarin, badiiy obraz ratsional va emosional birlik bo‘lib, o‘ziga xoslik (individuaallik) va umumiylik, aql hamda tuyg‘u kabi bir-biriga zid tushunchalarni ham o‘zaro birlashtiradi. Badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan biri ko‘pma‘nolilik (metaforiklik¹ va assotsiativlik²) dir. Adabiyot va san‘at, xususan, poeziya obrazli tafakkur qilish va obrazli ifodalashdir. Binobarin, metafora qo‘llash – san‘atkorona nigoh hosilasi. U shoir tug‘ma iste‘dodi, obrazli tafakkuri, qiyosan tavsiflay olish, ifodalanayotgan narsa haqida o‘quvchi ongida jonli tasavvur (obraz) yaratish, poetik nutqni yuzaga keltirish mahoratidan darak beradi³.

Nemis faylasufi Ernst Kassirer “Ramziy shakllar falsafasi”, “Inson haqida esse”, “Bilim fenomenologiyasi” kabi asarlarida I.Kantning “hissiy intellekt” haqidagi g‘oyalari, xususan “Sof aql tanqidi”⁴ asaridagi: “Mazmunsiz fikrlar bo‘sh, tushunchasiz tafakkur esa ko‘r”, degan muhim tamoyilga ergashadi. U atributlar guruhini ketma-ket joylashtirishga asoslanuvchi funksional konsepsiyasida narsaning xususiy belgi-sifatlaridan umumiylikka qarab boradi.

Olim insoniyat madaniyatining har bir sohasi hissiy tafsilotlarni ramziy tartibda birlashtirishning o‘ziga xos usuliga ega. Har bir avlod makon va zamonni o‘zicha idrok etar ekan, ramziy shakllar ham individual tonalligi bilan farqlanadi. Insoniyat madaniyati – shakllar uyg‘unligini ideal tarzda ifodalaydi. Hayot – borliqning uzluksiz oqimi bo‘lib, u dastlab insonning ifoda kuchi bilan shakllanadi, undan inson madaniyatining barcha shakllari vujudga keladi, deb hisoblaydi.

Ernst Kassirer ramziy shakllar metafizikasi haqida so‘zlarkan, ongning ekspressiv funksiyasi va ruh hayotining o‘zgarishi degan g‘oyani qo‘llab-quvvatlaydi. Boshqacharoq aytganda, mif, til va san‘atning genezisini bitta ibtidoga – ruhga bog‘laydi. Ular azalda bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan va shu sabab ularning genezisini bir butunlikda o‘rganish lozim deb uqtiradi⁵. E. Kassirerning poeziyada inson ruhi, erkin taxayyul parvozlari nainki so‘zning obrazlilik (tasviriylik)ni saqlaydi, balki har bir avlod uni muttasil yangilab turadi, degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, poeziyada olam metaforik nigoh bilan ko‘riladi. So‘z badiiy ifoda uchun qo‘llaniladi va yangi, estetik hayotini boshlaydi. Shubhasiz, poeziyaning metaforaga moyilligi unda real voqelik (ob‘ektiv olam) va inson shaxsi (sub‘ektiv olam)ning o‘zaro to‘qnash kelishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Metafora shoirga o‘zining ichki olamini (tashqi olamga qiyosan) va o‘zidan tashqaridagi olamni (ichki olamiga qiyosan) anglashga yordam beruvchi vositadir. Metaforaning keng tarqalgan asosiy ko‘rinishlari jonlantirish yoki predmetlashtirish asosida amalga oshadi. Jonlantirish asosidagi metaforaning qadimiyroq ekani uning ildizlari mifologik tafakkurdan oziqlanishidan dalolat beradi. Strukturalizm asoschilaridan biri – rus va AQSh olimi Roman

¹ Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М., 1976. – С. 341; Поэтика: Труды русских и советских поэтических школ. – Budapest, 1982. – С. 64-66; Жирмунский В.М. Введение в литературоведение. Курс лекций. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 335; Якобсон Р. Работы по поэтике. – М., 1987. – С. 326; Ортега-и-Гассет. Две великие метафоры. //Теория метафоры. – М., 1990. – С. 70-72; Боров Ю. Эстетика. – М., 1987. – С. 148-154; Каримов О. Метафора – поэттик тафаккур асоси // Жаҳон адабиёти. – Т.: 2014, № 8.

² Боров Ю. Эстетика: Отношение к действительности; Творчество; Произведения; Природа и виды искусства; Художественный процесс; Обращение с искусством. – М.: 2005. – С. 164.

³ Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. – С. 173.

⁴ Кант Иммануил. Критика чистого разума / (Пер. с нем.; предисл. И. Евлампиева). – М.: Эксмо; СПб: Мидгард, 2007.

⁵ Кассирер, Э. Философия символических форм. Т. 2, 3, 4. (Пер. с нем. С.А.Ромашко) – М., – СПб.: Университетская книга, 2002

Osipovich Yakobson futurist shoir Velimir Xlebnikov tilining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganar ekan, shakl va mazmun munosabatlarini inkor etgan bo‘lishiga qaramasdan: “*she’riyat estetik vazifadagi til bo‘lib, poeziya asosida o‘xshashlik prinsipi yotadi*”¹ -degan tezisni ilgari suradi. She’r nazariyasi bilan faol shug‘ullangan Viktor Maksimovich Jirmunskiy: “*Romantizmning asosiy xususiyati metaforiklikdir*”² deb yozadi

Darhaqiqat, metaforiklik omili jo‘n nutq bezagi bo‘lmay, bu xususiyat tufayli poeziyada so‘zning estetik hayoti ta‘minlanadi. Shu yo‘sinda fikrlaydigan alohida shoir dunyoqarashi hamda ifoda uslubi yuzaga chiqadi. Ya‘ni badiiy tafakkurning asosi bo‘lgan metafora (bir narsa-hodisa mohiyatini ikkinchi bir narsa-hodisa orqali ochish) ayrim hollarda, dunyoqarash va uslubni ham belgilashga imkon beradi.

Metafora badiiy tafakkurning asosiy mexanizmi bo‘lib, badiiy tafakkur metaforik shaklda kechadi. Poeziyadagi obraz konkret his etiladi. U narsaning jo‘n aksi emas, balki hissiy idrok va poetik ifoda etilgan yangi mavjudlikdir. Metafora aks ettirilayotgan narsa (yaxlit badiiy asar – butun holiday obraz)ni ham anglash vositasidir.

Metafora prinsipi poetik asar barcha sathlari: (tilidan kompozision qurilishigacha) da amal qiladi. Shoir uslubi to‘la metaforiklashmagan ayrim asarlarda bu tamoyil sathlarning hammasida dominant xususiyat sifatida yaqqol ko‘zga tashlanmasligi mumkin. Shunga qaramasdan, lirik qahramon kechinmalarini aks ettiruvchi poetik obrazlar o‘z ruhi hamda hissiy kechinmalarga boy mazmuni bilan keng ma‘nodagi metaforiklik prinsipi doirasida o‘z izohini topadi. Chunki o‘z o‘rnida qo‘llanilgan bitta metafora ham funksional jihatdan o‘ta faol bo‘lishi, she’rda mazmuniy va hissiy jihatdan uyushtiruvchilik vazifasini bajarishi mumkin.

Anglashiladiki, *metaforaga funksional jihatdan qarash uch jihatdan muhimdir:*

- a) metaforaning tabiatini tushunish;
- b) muayyan shoirning uslubini aniqlash;
- v) shoir dunyoqarashini anglash.

Zotan, ijodiy faoliyat mahsuli bo‘lgan metafora shoirga o‘z dilidagini ifodalash va she’rxonga ularni his qilish imkonini beradi. Shuning uchun har ikkala tomon (ijodkor va o‘quvchi) nazardan soqit qilinmasagina metafora o‘z chiroyini to‘la ochadi.

Sharqdagi ilmi badiiga oid adabiyotlarda³ ta’kidlanishicha, har bir badiiy obraz, xususan, ko‘chim (trop) ning negizida assotsiativlik yotadi. Biroq, assotsiativ obrazlilik asosan, XX asr she’riyatiga xos hodisadir. Chunki, assotsiativ tasvir deyilganida (lotincha associatio – bog‘lanish)

¹ Якобсон Р. Сдвиги [предисл. С. Глебова] // Формальный метод: Антология русского модернизма / сост. С. Ушакин. Т. 3. – Москва; Екатеринбург: Кабинетный учёный, 2016. – С. 225.

² Жирмунский В.М. Теория стиха. – М.: Советский писатель, 1975 – С. 575-576.

³ Атоуллох Хусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. (Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси) –Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. – 398 б; Болтабоев Х. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 430 б; Загидуллина Д.Ф. Влияние средневековой арабской и персидской науки балаякть на татарское литературоведение //Ученые записки казанского государственного университета Науки, 2008. Т. 150, Кн. 8. – Казань. – С. 48–54. Крачковский И.Ю. Поэзия по определению арабских критиков. Избранные сочинения. Т.2. – Москва: Ленинград, 1956. – С.52; Мирафзалов М. Саъдуддин Тафтазоний ва балоғат илмлари // Шарқ машъали. – Т., 1996, № 1-2. – Б. 37–39; Олимов С. Навоийнинг шеършунос шогирди. – Т.: Фан, 1990. – 57 б; Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 216; Стеблева И.В. Семантика газелей Бабура. – М.: Наука, 1982. – С. 43; Стеблева И.В. Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. – М.: Восточная литература, 2012. – С. 5-6; Фильштинский И.М. Арабская классическая литература (V-начало X века). – М.: Главная редакция восточной литература, 1985. – С. 247; Чалисова Н.Ю. Рашид ад-Дин Ватват и его трактат «Сады волшебства в тонкостях поэзии» /Рашид ад-Дин Ватват. Сады волшебства в тонкостях поэзии/ Пер. сперс. Н.Ю. Чалисовой. – М.: Наука, 1985. – С. 325; Шайх Ахмад Тарозий. Фунуну-л-балоға / А.Хайитметов нашрга тайёрлаган. – Т.: Хазиана, 1996. ва б.

dan uzoq bo‘lgan tushunchalarning kutilmagan birikmasidan kelib chiqqan, metaforiklik va subektivlikni oshirgan tasvir tushuniladi.

Assotsiativ obraz go‘yo ixtiyoriy, ammo beixtiyor ulanishlarni jadal aniqlashni talab etadi. Shuning uchun, kitobxon hamisha faol munosabatda bo‘lishi lozim. Zotan, aynan o‘sha qo‘shimcha bog‘lanishlar bizga assotsiatsiya, metaforik to‘yinganlik, muallifning yondashuv yo‘sini, assotsiatsiyalar zanjiri haqidagi ma’lumotlarni beradi. Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, poetik assotsiatsiyalar: a) *hissiy-psixologik*; b) *mavzu-semantik*; v) *madaniy-ramziy* kabi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. San‘at tabiati, mohiyati, kelib chiqishi va rivojlanishining nazariy tarixi, shuningdek go‘zallik, ulug‘vorlik, fojialilik, kulgulilik kategoriyalariga yangicha yondashgan rus faylasufi va adabiyotshunosi, ellikdan ortiq monografiyalar muallifi Yuriy Borisovich Borev ta’kidlashicha: “*Assotsiativlik badiiy ijod psixologik mexanizmining gnoseologik darajadagi xususiyatlaridan biri sifatida o‘zini metafora shaklida namoyon etadi... Tasvirda bir-biridan uzoq bo‘lgan hodisalarning “qo‘shilishi” orqali, voqelikning noma’lum tomonlari va munosabatlari ochiladi*”¹

Adabiyotshunoslikda badiiy obrazlar odatda, quyidagicha tasnif qilib kelinadi:

- a). **Ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko‘ra:** ijobiy va salbiy.
- b). **Ijodiy metodiga ko‘ra:** realistik, romantik va b.
- v). **Yaratilish usuliga ko‘ra:** fantastik, grotesk va b.
- g). **Xarakter xususiyati va estetik belgisiga ko‘ra:** tragik, satirik, yumoristik.
- d). **Tasvir planiga ko‘ra:** inson obrazi, jonivorlar obrazi, narsa-buyumlar obrazi².

Rus va AQSh adabiyotshunosi Mixail Naumovich Epshteyn (1950) badiiy obrazlarni quyidagicha tasnif qiladi³:

1. Predmetlilik darajasi (tasvirlanayotgan narsaning ko‘lami) ga ko‘ra badiiy reallik to‘rtta sathdan tarkib topadi:

- **detal obrazlar** (tafsilotlar, narsa-buyumlar, portret, peyzaj)
- **voqea hodisalar obrazi** (ichki yoki tashqi harakatdan tarkib topadi);
- **xarakter va sharoit obrazi;**
- **dunyo va taqdir obrazi** (badiiy reallik)

2. Umumlashtirish darajasi: Inson obrazi (*individual obraz, xarakter, tip*) kabi. Jumladan: Adabiy-madaniy an‘ana doirasida turg‘un shaklga aylangan badiiy obrazlar:

• **motiv obrazlar** (Fitrat, Cho‘lpon, Oybek she‘riyati va nasridagi “yo‘l”, “yulduz”, “yo‘lchi” kabi obrazlar);

• **topos obrazlar** (o‘zbek mumtoz she‘riyatidagi payg‘ambarlar obrazi, shuningdek “gul”, “bulbul”, “sham”, “parvona” singari takrorlanuvchi obrazlar).

• **arxetip** (turg‘un sxema va qoliplar) “bulbul – gul – chaqirtikanak” (“zog‘ – qarg‘a) kabi konstruksiyalar yordamida yuzaga keluvchi syujet va syujet holatlari.

3. Strukturasi: – tasvir va ifoda qatlamlari munosabatiga ko‘ra .

- **avtologik** (tasvir va ifoda plani bir-biriga mos tushuvchi) obrazlar.

¹ Боров Ю. Эстетика: Отношение к действительности; Творчество; Произведения; Природа и виды искусства; Художественный процесс; Обращение с искусством. – М., 2005. – С. 164.

² Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшunoslik lug‘ati. – Т.: Akademnashr 2010. – Б.48.

³ М.Н Эпштейн рус мумтоз адабиёти, илоҳиёт (мистика), А.С.Пушкин, Н.В.Гоголь, Ф.М.Достоевский, Б.Л.Пастернак, О.Э.Мандельштам, А.П.Платонов ижод олами, эстетик идеал, шеърят, пейзаж лирикаси, поэтика, архетиплар назарияси, семиотика, тафаккур ва образ уйғунлиги, гуманитар фанлар методологияси, постмодернизм, постсовет маданиятининг янги истиқболлари сингари кўплаб муаммоларни ўрганган. (С.Ё.)

• **metalogik** (tasvirlanayotgan narsa bilan ifodalanayotgan narsa zohiran o‘zaro mos emas. Ammo ular o‘rtasida ko‘chimdagi kabi mushtarak nuqtalar mavjud) obrazlar.

• **superlogik** obrazlar¹. (Tasvir bilan ifodani bog‘lovchi mushtarak nuqtalar mavjud emas. Tasvir muayyan kontekst doirasidagina shartlilik asosida ko‘zlangan mazmuni ifodalaydi)

Mixail Epshteynning yuqoridagi tasnifi qamrov darajasining kengligi bilan e‘tiborni tortadi. Zotan, olim butunni tashkil qiluvchi unsurlarni predmetlilik darajasi va tasvir ko‘lamiga ko‘ra bir-biridan farqlasa ham, bu qatlamlar o‘rtasida qat‘iy uzviylik va izchillik mavjud deb hisoblaydi.

She‘r (keng ma‘noda badiiy asar) shoirning obektiv voqelikka bo‘lgan subektiv-estetik munosabatidan yuzaga keladi. She‘r – xayol parvozlari, taxayyul yuksakliklarida qalban tuyilgan, hayot – xayol – xotira va orzu-umidlarning shoir tasavvurida tiniqlashgan hamda ongida mushohada-muqoyasa etilgan, saralangan manzaralari, rang va ohanglarining san‘at tili, ya‘ni obrazli badiiy nutqqa ko‘chirilgan ifodasi. Shu ma‘noda, u mutlaqo yangi va nafis bir borliqdir.

Inson qalbi (kechinma) va ongi (fikr-mulohaza)ni ajratib qarash nisbiydir. Ongimiz ko‘z bilan ko‘rilgan, quloq bilan eshitilgan, ta‘m va hid bilish a‘zolari orqali keluvchi axborotlarni mushohada-muhokama qiladi. Qalbning xizmatida esa: (e‘tiqod, ishonch, mehr, vafo, insof, diyonat, oqibat singari) o‘nlab ruhiyat posboni bo‘lmish iymon lashkarlari kamarbasta. Binobarin, kechinma va fikr muayyan nuqtada bir-birini to‘ldirib, yaxlit uyg‘unlikni yuzaga chiqaradi.

Ijodkor inson nafis so‘z orqali odam va olam bilan muloqot qiladi. Uning yaratuvchisiga iltijo va shukrona aytadi. O‘z orzu-armonlari, quvonch-iztiroblari, intilish-umidlarini izhor etadi. Iroda mayllari so‘zga pokiza his-tuyg‘u, lirik harorat, ma‘naviy-ruhiy kuch va ijtimoiy-ma‘rifiy zalvar yuklaydi. Shoir yurak zarbining ritmini so‘zga ko‘chiradi. Bularning barchasi so‘zning jilvakorligini ta‘minlab, ta‘sir kuchini oshiradi. Shoir shaklan va mazmunan sayqal bergan – hissiy harorat bilan to‘yingan nafis so‘z o‘quvchi qalbi va shuurini harakatga keltirib, irodasini quvvatlantiradi. Muallif haqiqatini mushohada etishiga imkon beradi.

She‘rga evrilgan insoniy his-tuyg‘u baland, qalban kechinilgan, mazmunan zalvarli bo‘lmog‘i, xolislik va samimiyatga yo‘g‘rilgan holda badiiy ifodaga ko‘chmog‘i lozim. Chunki poetik so‘zning ichki qudrati (potensiyasi) nechog‘lik kuchli va tugal bo‘lsa, she‘r ham shunchalik yashovchan bo‘ladi. Go‘zal mazmuni nafis shaklga joylay olmaslik brilliantdan kuldon, oltindan belkurak yasash yoxud motamda “gulyor”, to‘yda “giryra” chalish, “suvoriy” yangraganida yig‘lash kabi bema‘nidir.

Badiiy obrazning hissiy mazmuni g‘oyaviy-emotsional va estetik ta‘sir kuchiga ega. Badiiy ijod – badiiy reallikni yuzaga chiqaruvchi obrazli fikrlash mahsuli. Estetik tafakkur tarixida badiiy ijodning quyidagi ikkita talqini amal qilib keladi:

1. Gnoseologik talqin: Bunda “bilish nazariyasi” nuqtayi nazaridan yondashilib, ijodkorning dunyoni bilish imkoniyati, o‘zlikni anglash jarayoni, bilimlarni egallagan sari fikran va ruhan yuksalib borishi, bilimlar tabiati va ularda aks etuvchi narsalarning nisbati kabi antik tasavvurlardan shu kungacha bo‘lgan nazariy qarashlarga tayaniladi. Bilishning haqiqatga muvofiq, ishonchli va asoslangan bo‘lishiga e‘tibor qaratiladi.

Biz ishning hajmi va ilk Renessans davridayoq Sharqda hind hamda yunon falsafasi va estetikasining ilg‘or yutuqlari ijodiy o‘zlashtirganini nazarda tutib, antik tasavvurlarga mufassal to‘xtalishdan tiyildik. Muhokama va mulohazalarimizni Markaziy Osiyoda bilish nazariyasining o‘ziga xos jihatlarni ko‘rsatishdan boshladik. Mutafakkir Forobiy: “... *inson barcha bilimlarni tashqi*

¹ Эпштейн М.Н. Семантика славянского слово образа и структура его ассоциативных связей: автореф. дис. ... канд. филол. наук: Ин-т славяноведения и балканистики. – М., 1989. – С. 25; Эпштейн М. Знак пробела: О будущем гуманитарных наук. – М.: Новое литературное обозрение. 2004; Стихи и стихии. Природа в русской поэзии 18-20 веков (серия «Радуга мысли»). Самара, Бахрах – М., 2007.

dunyodagi hodisalarni bilish orqali o‘zlashtiradi. Bu jarayon sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish va mantiqiy mulohaza yuritish, tafakkur kabi usullarni qamrab olali”,¹ - deb yozadi. U narsa va hodisaning u yoki bu jihatini teranroq tushunishda hissiy idrok va oqilona bilish shakllarini farqlaydi. Bilim olish va uning haqiqiyligini tekshirishda tajriba metodiga tayangan Beruniy: “Sinovdan boshqa ustuvor dastur, tajribada tekshirishdan o‘zga muvaffaqiyatga eltadigan dasturilamal yo‘q”² deb hisoblaydi.

Ibn Sino o‘zining in’ikos konsepsiyasida sezgi, tasavvur, kuzatish, aqlning ijodiy tabiati va mavhumlashtirishga ahamiyat qaratib: “Obektiv olam mohiyatini oqilona bilishda mavhumlashtirish (abstraksiya) muhim rol o‘ynashi”ni³ alohida qayd etadi. Alloma inson tuyg‘ularini uning miya tuzilishi va sezgi markazlari – fiziologik asoslar bilan bog‘laydi.

Ibn Arabiy bilishning mazmunan farqlanuvchi, ammo bir-biri bilan uzviy bog‘langan uch usuli – ilmiy til bilan aytganda: *ilohiy mohiyatning dunyoga nisbatan transsendentligi va immanentligi* muammosini yechishning quyidagi uch variantini ko‘rsatadi:

a) ilohiy va moddiy mohiyatni oqilona-mantiqiy bilish – *qism (moddiy) dan butun (Xudo) ga qarab borish*;

b) dunyoviy va ilohiy mohiyatning zohiriy hamda botiniy ma’nolariga xos jihatlar uzviy birligini bilish – *butundan qism sari harakat qilish*. Ya’ni mushohada yuritish orqali yaratilarda Yaratuvchini bevosita ko‘rish. Bu fikr badiiy-estetik mohiyatga ega bo‘lib, butunning mohiyatidan qismning mazmuni keltirib chiqariladi.

v) muammoni ilohiy yo‘l bilan yechish – *qismlar va butunning ayniyligi usuli*. Boshqacharoq aytganda, bilish sub’ektining o‘z mohiyatini yo‘qotishi – *o‘zlikning “fono” bosqichiga o‘tish holati*⁴.

“Ko‘ngil – yorda, qo‘l – mehnatda” (“Dil – bayor-u, dast – bakor”) konsepsiyasini ilgari surgan Bahouddin Naqshband aksariyat so‘fiylar singari inson ongi zohirdan botinga, ochiqlikdan yashirinlikka tomon safar qilishini yoqlaydi.

